



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 23-sentabr

VII-14-107-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi ““Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-330-sonli qarori ijrosi yuzasidan tumanda bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Zavqiyevning hisoboti haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi ““Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-330-sonli qarori ijrosi yuzasidan tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Zavqiyevning hisoboti muhokama etilib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi yettinchi chaqiriq o‘n to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi ““Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-330-sonli qarori ijrosi yuzasidan tumanda bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Zavqiyevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining Moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (M.Zavqiyev), tuman hokimining qishloq va suv xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (B.Sulaymanov) O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (G‘.To‘ychiyev) hamda tuman irrigatsiya bo‘limi (A.Ibragimov) loyihalar o‘z vaqtida, tizimli va sifatli bajarilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin. Bunda, tegishli tashkilot rahbarlari bilan birgalikda dastur doirasida ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishni tashkil etish hamda kreditor qarzdorlik yuzaga kelishining oldini olish bo‘yicha quyidagi qat’iy choralarni ko‘rsin:

- loyihalar doirasida obyekt foydalanishga topshirilgunga qadar har bir jarayonni to'la nazoratga olish;

- buyurtmachilar hamda loyiha va pudrat tashkilotlari o'rtasida o'z vaqtida va o'rnatilgan tartibda shartnomalar tuzilishi, ularning moliyalashtirilishi;

- qurilish jarayonida mualliflik, texnik va davlat nazorati olib borilishini, bu borada aniqlangan kamchiliklar bo'yicha berilgan yozma ko'rsatmalar va ularni bajarilishi;

- bajarilgan ish hajmlari bo'yicha to'lovga topshirilgan dalolatnomalar haqqoniyligini texnik nazoratchi va qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi xodimlari ishtirokida o'rganib borilishi;

- tarmoq jadvalidan ortda qolayotgan obyektlar bo'yicha muammolarni aniqlab, bartaraf qilib borilishi;

- bajarilgan ishlar hajmi bo'yicha topshirilgan dalolatnomalarning haqqoniyligiga alohida e'tibor bergan holda, qo'shib yozish, sifatsiz ishlarni aniqlash va ularni joyida bartaraf etishga alohida e'tibor qaratish;

- aniqlangan har bir qo'shib yozish va sifatsiz ishlar bo'yicha ma'lumotnoma tuzish, qonunbuzilish holatlari yuzasidan huquq-tartibot idoralariga ma'lumot taqdim etib borish;

- homiylar va hashar yo'li bilan amalga oshirilgan ishlarning hisobini yuritish, bu ishlarni pudratchilar tomonidan ish hajmlari bo'yicha dalolatnomalarga qo'shib yozish holatlarining oldini olish;

- manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya holatlariga keskin munosabat bildirib, aybdor shaxslarning javobgarlik masalasini hal etish;

- qurilish jarayonlari bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlar va amalga oshirilgan ishlar haqqoniyligi bo'yicha monitoring guruhlar tuzib, hududlarga muntazam chiqqan holda o'rganib borilishini ta'minlasin.

3. Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov) loyihalarning amalga oshirilishi holati yuzasidan har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarida hisobot kiritib borsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi Qonuniga asosan loyihalarni o'z vaqtida, sifatli va tizimli amalga oshirilishi yuzasidan deputatlik nazoratini o'rnatish. Bunda, soha mas'ullari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar (tadbirlar)ni monitoring qilgan holda joyida o'rganishlar olib borish, natijalarini tuman Kengashining tegishli doimiy komissiyalari yig'ilishlari hamda Kengash sessiyasi kun tartibiga tegishli masalalar kiritib muhokama etib borsin.

5. Mazkur qarori ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiya (A.Xudayberdiyev), tuman hokimining birinchi o'rinbosari M.Zavqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH